

## O'ZBEKISTONDA OILAVIY ZO'RAVONLIK VA UNING OQIBATLARI

*Obidjonov Ozodbek Oybek o'g'li**Jamoat xavfsizligi universiteti**Maxsus fakultet 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlik muammosi, uning turlari, kelib chiqish sabablari hamda jamiyatga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy zo'ravonlikning huquqiy asoslari, statistik ko'rsatkichlari va uni oldini olish bo'yicha takliflar yoritilgan. Muallif oiladagi sog'lom muhit jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Oilaviy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, huquqiy madaniyat, oila, jamiyat, himoya orderi, inson huquqlari.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема семейного насилия в Узбекистане, анализируются его виды, причины возникновения и негативное влияние на общество. Также освещаются правовые основы противодействия семейному насилию, статистические показатели и меры по его предотвращению. Автор подчёркивает, что здоровая атмосфера в семье является важным фактором стабильного развития общества.

**Ключевые слова:** семейное насилие, физическое насилие, психологическое насилие, экономическое насилие, сексуальное насилие, правовая культура, семья, общество, охранный ордер, права человека.

**Abstract:** This article examines the problem of domestic violence in Uzbekistan, analyzes its types, causes, and negative impact on society. It also highlights the legal framework for combating domestic violence, statistical indicators, and measures aimed at its prevention. The author emphasizes that a healthy family environment is an important factor in the stable development of society.

**Keywords:** domestic violence, physical violence, psychological violence, economic violence, sexual violence, legal culture, family, society, protection order, human rights.

Bugungi kunda dunyoda har uch ayoldan biri jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik qurboniga aylanadi va aksariyat hollarda zo'ravonlik ayolning turmush o'rtog'tomonidan sodir etiladi. Xo'sh, oilaviy zo'ravonlik o'zi nima? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin.

**Oilaviy zo'ravonlik**-oila a'zolari tomonidan boshqa oila a'zolariga nibatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy bosim, tahdid, haqorat yoki zarar yetkazishdir.

Asosan, bu kabi jinoyatlar oilada er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. U, aslida, faqat bir oilaning ichki muammosi emas, balki butun bir jamiyatning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi jiddiy ijtimoiy illatdir. U inson huquqlarini qo'pol ravishda buzilishi hisoblanib, uning oqibatlari jismoniy, balki chuqur sixalogik va ruhiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Ko'pchilik shaxslar oilaviy zo'ravonlik deganda faqat jismoniy kuch ishlatishni tushunishadi, biroq uning ko'rinishlari ancha kengroq:

1. **Jismoniy zo'ravonlik**-urush, do'pposlash, sog'liqqa zarar yetkazish yoki hayotga xavf soluvchi jiddiy xarakterli harakatlar.

2. **Ruhiy (psixalogik) zo'ravonlik**-haqorat qilish, kamsitish, tahdid solish, begonalardan ajratib qo'yish va doimiy nazorat ostida ushlab turish.

3. **Iqtisodiy zo'ravonlik**-moliyaviy resurslardan mahrum qilish, ishlash yoki o'qishga ruxsat bermaslik, shaxsiy mablag'larni tortib olish.

4. **Jinsiy zo'ravonlik**-insonning xohshiga qarshi ravishda jinsiy aloqaga majburlash yoki nomaqbul harakatlar qilish.

"Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar—avgust oylarida Jinoyat kodeksining 126<sup>1</sup>-moddasi bo'yicha 298 nafar shaxs sudlangan, ularning 81 nafari ozodlikdan mahrum etilgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 472 nafar bo'lgan, shundan 150 nafari ozodlikdan mahrum etilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59<sup>2</sup>-moddasi asosida esa 2025-yil 8 oyi davomida 7 624 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy choralar qo'llanilgan. Bu 2024-yilga (16 524 holat) nisbatan kamaygan bo'lsa-da, holatlar soni yuqoriligicha qolmoqda. Ulardan 6 585 nafariga ma'muriy qamoq jazosi tayinlangan.

Oilaviy zo'ravonlik oqibatida 2025-yilning 8 oyi davomida 47 ta nikohni bekor qilish to'g'risida ariza sudlarga kiritilgan, shundan 37 tasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41<sup>1</sup>-moddasi bilan shahvoniy shilqimlik uchun javobgarlik belgilangan. 2025-yil 8 oyi davomida ushbu modda bo'yicha 1 450 nafar shaxs sudlangan, ularning 969 nafari ma'muriy qamoqqa, 481 nafari jarimaga tortilgan. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 1 854 nafarni tashkil etgan."

Yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar orqali bu masalaning bugungi kunda qanchalik dolzarbligini anglab yetish oson. Buning sabablariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, patriarxal tariximizga nazar tashlashimiz kerak. Qadimdan bizning hududimizda yashab kelgan odamlarning ongida boshqacha qarashlar mavjud,

ya'ni oilada ayol kishi itoatkor bo'lishi kerakligi, erkaklar esa mutlaq rahbar ekanligi va ayollarning ularni so'zlarini itoat bilan bajarishlari kerakligi kabi an'analar mavjud. Bu, esa ayollar ustidan nazorat va jazo huquqini oqlaydi. Masalan, ayolning bo'sunmasligi zo'ravonlik holatlariga sabab bo'ladi, qarindoshlar ham bu kabi tuzumlarni qo'llab-quvvatlab qurbonni ayblashadi. Uning paydo bo'lishiga oid yana bir

katta sabablardan biri esa bizning odamlarimiz orasida huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonligning juda pastligi. Ya'ni erkaklar va ayollar o'zlarining huquqlari va erkinliklarini yaxshi bilmasliklaridir. O'zbekiston Respublikasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish qonuniylashtirilgan. Buni biz Konstitutsiya, oila kodeksi kabi hujjatlar asosida ko'rishimiz mumkin. Xususan, oila kodeksida erkak va ayolning teng huquqliligi ta'kidlab o'tilib, ularning huquq va majburiyatlari nikoh shartnomasida yaqqol isbotini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni unga ko'ra oilada farzand tarbiyasi va shunga o'xshash qiyin yumushlar faqatgina ayolning vazifasi emas, balki erkak kishining ham vazifasi keltirib o'tilgan. Yana bir sabablardan biri oilada tarbiyaning sustligi deb o'ylayman, ayniqsa, bugungi davrda yosh oilalarda farzand tarbiyasiga e'tibor deyarli qaratilmay qo'yildi. Buning natijalarini ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlardan qolaversa, butun jamiyatimizdagi holatlardan anglashimiz qiyin emas. Bu bilan men "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan ajoyib bir o'zbek maqoliga to'xtalib o'tmoqchiman. Darhaqiqat, farzandlar otalaridan ko'rgan bilgan narsalarni takrorlaydilar va bu oiladagi zo'ravonlikni ham keltirib chiqarishi mumkin, albatta.

Zo'ravonlik muhitida osgan bolalar kelajakda xuddi shu modelni o'z oilalarida takrorlash ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu esa jamiyatda agressiyaning zanjiri bo'lib davom etishiga olib keladi. Shuningdek doimiy qo'ruv ostida yashash insonning mehnat qobiliyatini pasaytiradi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oilaviy zo'ravonlik nafaqat bir oilaning ichki muammosi, balki jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diruvchi ijtimoiy illat hisoblanadi. Zo'ravonlik insonning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, oiladagi sog'lom muhitning buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, bunday muhitda voyaga yetgan bolalarda agressiv xulq-atvor shakllanishi va kelajakda zo'ravonlikning takrorlanish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Bu kabi illatlarni oldini olish uchun jazolarning muqarrarligini ta'minlashimiz va jabirlanuvchilarga himoya orderlarini berishimiz darkor. Ijtimoiy yordam ko'lamini kengaytirib, rehabilitatsiya markazlari hamda aholin uchun psixologik va yuridik klinikalarni tashkillashtirishimiz kerak. Yoshlar o'rtasida ta'lim tizimini rivojlantirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'limga chuqur e'tibor qaratishimiz lozim.

Oila –jamiyatning asoiy bo'g'inidir, shunday ekan,

oila sog'lom bo'lsa,- jamiyat sog'lom bo'ladi, jamiyat sog'lom bo'lsa, mamlakat barqaror rivojlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti,

023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi – Toshkent, amaldagi tahrir.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi – Toshkent, amaldagi tahrir.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi – Toshkent, amaldagi tahrir.
5. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida Qonun – O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019-yil 2-sentabr.
6. Lex.uz milliy qonunchilik bazasi
7. Stat.uz rasmiy statistika portali
8. Millatlar Tashkiloti hisobotlari va gender tenglikka oid materiallari.
9. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha e‘lon qilingan ma‘lumotlar.
10. Saidov. “Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: